ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№2(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 230 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari ........ 22
Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna

O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida ........ 26
Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna

Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil ........ 29
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish ........ 33
Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish ........ 37
Nusharov Bobir Bolbekovich

Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя ........ 41
Олимова Азиза Кахрамоновна

"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari ........ 47
Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi

Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari ........ 50
Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich

Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari ........ 54
Fayziyeva Nozima Oybek qizi

Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi ........ 59
Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli ........ 64
Botirova Lobar Kamolovna

O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ........ 69
Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlarga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish ........ 73
Ergasheva Nigora Erkinovna

Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects ........ 76
Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna

Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 81
Rustemov Abseit Trijan o'g'li

Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni ........ 85
Baxramova O'ramol Uralovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati ........ 88
Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna

Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari ........ 92
Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich

Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli ........ 96
Ergasheva Mehriyona

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari ........ 100
Jummayeva Sayyora Shokir qizi

The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies ............ 104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi

Sogʻlom separatsiya orqali yoshlar sogʻligʻini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili ............ 109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna

Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uygʻunligi ............ 112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi

Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations ............ 116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari ............ 123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi

Qandli diabet bilan ogʻrigan bemorlarga pedagogik yordam koʻrsatish tizimi ............ 126
Shermatova Yakut Sabirovna

Oʻsmirlar oʻrtasida kiberbulling ............ 129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish ............ 132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna

Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli ............ 135
Turdiyeva Zilola Jalilovna

Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning oʻrni ............ 138
Xalikova Umida Mirovna

Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga oʻrgatish jarayonidagi oʻrni ............ 143
Xasanova Shaxnoza Toʻxtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi

Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash ............ 148
Zayniyev Suxrobjon Islombek oʻgʻli, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi

О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования ............ 153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна

Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ............ 156
Kushakova Gulnora Egamkulovna

Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish ............ 160
Normurodova Gulnora Ikromovna

Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari ............ 164
Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi

Psixologik zoʻravonlikning oʻsmirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri ............ 168
Jurakulova Dildora Ziyadullayevna

Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari ............ 172
Kazakova Saxiba Abdurayimovna

Kichik maktab yoshi oʻquvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari ............ 178
Ziyayev Adxamjon

Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini ............ 182
Joʻrayeva Nozima Nozim qizi

Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi ............ 185
Shaimardanov Sherbek Abdurashid oʻgʻli

Eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari ............ 189
Teshaboyeva Feruza Raximovna

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri ............ 192
Ashirova Sojida Baxromovna

Boʻlajak tasviriy san'at oʻqituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida oʻqitishning tarixiy pedagogik ildizlari ............ 196
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ........ 200
Jabborova Salomat Abdijalilovna

Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni......... 204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish ............ 208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi

Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi ........ 213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna

Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ........ 217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna

Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari ........ 221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari........ 224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi

# TILNING OBRAZLI KUCHI: PERIFRAZALAR TURLARI VA XUSUSIYATLARI



Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri, filologiya
fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
**ORCID: 0000-0002-3898-2113**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada perifraza tushunchasi, uning turlari va xususiyatlari tahlil qilinadi. Perifrazalar frazeologik, sintaktik va mantiqiy turlarga bo'linadi, shuningdek, til yoki nutq hodisasi sifatida sof (lisoniy) va kontekstual (okkazional) turlarga ajratiladi. Maqolada perifrazalarning tasviriy kuchi, so'z boyligini oshirish va fikrni jonli ifodalashdagi ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** perifraza, frazeologik perifraza, sintaktik perifraza, mantiqiy perifraza, sof (lisoniy) perifraza, kontekstual (okkazional) perifraza, tasviriy ifoda, til boyligi.

**Abstract:** This article examines the concept of paraphrase and its classification. Paraphrases are divided into phraseological, syntactic, and logical types and, from the perspective of language or speech, into purely linguistic and contextual (occasional) forms. The study highlights the expressive power of paraphrases and their role in enriching vocabulary and conveying ideas in a vivid and figurative manner.

**Key words:** paraphrase, phraseological paraphrase, syntactic paraphrase, logical paraphrase, purely linguistic paraphrase, contextual (occasional) paraphrase, figurative expression, language richness.

**Аннотация:** В данной статье анализируются понятие перифразы и её классификация. Перифразы подразделяются на фразеологические, синтаксические и логические, а также с точки зрения языка или речи – на собственно языковые (лисонные) и контекстуальные (окказиональные). Освещается выразительная сила перифраз, их роль в обогащении словарного запаса и живом, образном выражении мысли.

**Ключевые слова:** перифраза, фразеологическая перифраза, синтаксическая перифраза, логическая перифраза, собственно языковая перифраза, контекстуальная перифраза, выразительная сила, богатство языка.

## KIRISH

Til – inson fikrini, his-tuyg'ularini va dunyoqarashini ifodalash vositasi sifatida noyob kuchga ega. Shu jumladan, perifrazalar tilning eng obrazli vositalaridan biri bo'lib, ular yordamida so'zlar va iboralar oddiy nomlash chegarasidan chiqib, yanada rang-barang, tasviriy hamda ta'sirchan ma'no kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mantiq ilmining bu xususiyati ayrim perifrazalarning shakllanishi va mohiyatini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Shuning uchun bunday perifrazalarni shartli ravishda logik yoki mantiqiy perifrazalar deb nomlash mumkin. Masalan, "O'zbek adabiy tilining asoschisi", "G'azal mulkining sultoni", "O'zbek adabiyotining bayroqdori" singari perifrazalar mantiqiy motivlovchi asosiga ko'ra Alisher Navoiyga nisbatan aytilgani sezilib turadi. Yoki "baxt va shodlik kuychisi" perifrazasi ham mantiqiy jihatdan shoir Hamid Olimjonni ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. "O'zbek romanchilik maktabining asoschisi" degan perifraza esa Abdulla Qodiriy ijodiga nisbatan aytilgani yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, quyidagi matnda perifrazalar Sohibqiron Amir Temur xarakterini ifodalash uchun qo'llanganini sezish qiyin emas: "Sohibqiron bir oyog'ini ikkinchisidan tashlab qadam bosar, dodxoh nazarida bu odam bir paytlardagi baland bo'yli, chorpaxil, oyoq-qo'llari uzun, pahlavonkelbat Temurbek emas, yillar zalvoridan yelkalari bir oz chiqqan, sezir-sezilmas cho'kkan (buni Muhammad Churog'a dodxoh sezadi, xolos!), ko'pdan buyon saltanat yukini yelkasiga dadil ortmoqlagan katxudo, mo'ysafidlik shartlarini inkor etishga qodirman, vaqtni yengib bo'lmasa-da, uni ham tiz cho'ktira olaman, deb urinayotgan Amir Temur edi".

МАКТАБ TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Perifrazalarni til yoki nutq hodisasi ekanligi nuqtayi nazaridan quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

1. **Sof perifrazalar (yoki til (lisoniy) perifrazalari).** Bu turdagi perifrazalar hech qanday vositasiz, ya'ni muayyan matnsiz ham aniq ma'no va tushunchani ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, fasllar kelinchagi – bahor, olimlar – ilm zahmatkashlari, ichki ishlar xodimlari – osoyishtalik posbonlari, tibbiyot xodimlari – salomatlik posbonlari, Abu Ali ibn Sino – buyuk hakim, barcha ne'matlarning sultoni – non kabilar. Umuman, sof perifrazalar shartli ravishda til birligi sifatida alohida, mustaqil qo'llana olishi, badiiy bo'yoqqa bevosita ega ekanligi bilan ajralib turadi.

2. **Kontekstual yoki okkazional perifrazalar.** Bunday perifrazalar ma'lum bir nutq doirasidagina qo'llanishi bilan sof perifrazalardan ajralib turadi. Ular muayyan bir matndagina yaratilib, shu matn uchungina yashaydigan tasviriy ifodalar sanaladi. Kontekstual yoki okkazional perifrazalarni u yoki bu matndan tashqarida alohida olib bo'lmaydi. Bunday perifrazalar faqat alohida olingan matndagina, boshqa so'zlar qurshovidagina muayyan til birligiga nisbatan tasviriy ifoda vazifasini bajaradi. Masalan, shoir Usmon Nosir "1870" nomli she'rida Volga daryosini "och Rusning yoshi" degan kontekstual perifraza orqali tasvirlaydi: "Volga! Volga – och Rusning yoshi, // Volga! Volga! Fig'onli daryo // Quyosh go'yo Razinning yoshi // Keng bag'ringda hamon mag'rur, ol". Shoir "Tiflis oqshomi" she'rida u yerdagi go'zal tabiatni zavq va lirik hayajon bilan ta'riflaydi, bunda shoir uchun ajoyib o'xshatishlar va osmonni "kashtali chodir" kontekstual perifrazasi bilan tasvirlash muhim uslubiy vosita vazifasini bajargan: "Yulduzlar yonar... Gurji qizlarning // Ko'zlari kabi // Aragvadan esgan mayin yel o'ynar // Barglar – asabiy... // Tuya misolida oq bulut suzar. // Sudralib bari // Osmon – kashtali chodir... uzoq chetlari Kurradan nari". "Biroq noiloj u, "Ulug' mamlakat"ga qanchalik sadoqat bilan xizmat qilmasin, o'sha davr alomatlarini qalbi to'riga yutishga majbur edi".

Keltirilgan misolda "Ulug' mamlakat" perifrazasi kinoyali ohangda sobiq Ittifoq, Moskva ma'nosini ifodalaydi. Matndan tashqarida bu perifraza xuddi shu ma'no qirrasiga ega bo'lmasligi ham mumkin. Shoira Zulfiya o'z she'rlaridan birida paxtaga nisbatan "oq zar", "oq baxt" kontekstual perifrazalarini qo'llagan edi: "Kiprik bilan terib olindi oq zar, // Yarqirab turibdi ahdimiz oq baxt". Yoki yozuvchi Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida Hirot, Samarqand shaharlari haqida quyidagi okkazional perifrazalar hosil qilingan: "Agar Xuroson bir uzuk ersa, Hirot uning yoqut ko'zidir, hazratim! – dedi mag'rur malika. – Kimdandir: "Eng yaxshi shahar qaysi?", – deb so'rabdurlar. Aytibdurlar: "Agar javobim chiroyli chiqsin, desang, "Hirot!" deb javob bergil, chunki Hirot – shaharlar durdonasidir!"; "... Olloh bergan umrni tuqqan yurti Turon dovrug'ini olamga yoyishga baxshida etdi. Dunyo bir uzuk ersa, Samarqand – firdavsmonand dorussaltanatni uning yoqut ko'ziga aylantiradi..." kabilar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot "Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari" mavzusini lingvistik hamda stilistik jihatdan o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda tizimli, struktur-semantik va funksional yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi umumiy tilshunoslik, stilistika, frazeologiya hamda matn lingvistikasi nazariyalariga tayanadi. Perifrazaning til tizimidagi o'rni, uning nominativ va ekspressiv funksiyalari, shuningdek, obrazlilikni yuzaga keltirish mexanizmlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot dizayni sifat jihatidan tavsifiy-analitik xarakterga ega bo'lib, perifrazalarning frazeologik, sintaktik va mantiqiy turlari hamda sof (lisoniy) va kontekstual (okkazional) ko'rinishlari qiyosiy asosda o'rganildi. Tadqiqot materiali sifatida badiiy adabiyot namunalari, publitsistik matnlar, ommaviy axborot vositalari materiallari hamda zamonaviy nutq namunalaridan tanlab olingan perifrazalar korpusi shakllantirildi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida tanlab olish (seleksiya), kartotekalash va kontekstual kuzatish metodlaridan foydalanildi. Tahlil bosqichida struktur-semantik tahlil, komponent tahlil, qiyosiy-tarixiy tahlil hamda pragmatik tahlil usullari qo'llanildi. Struktur-semantik tahlil perifrazalarning ichki tuzilishi va ma'no qatlamlarini aniqlashga xizmat qildi, komponent tahlil esa ularning obraz hosil qiluvchi birliklarini ajratishga imkon berdi.

Qiyosiy tahlil orqali perifrazalarning turli uslubiy qatlamlardagi funksional xususiyatlari solishtirildi. Pragmatik yondashuv asosida perifrazalarning nutqiy vaziyatda muallif maqsadini ifodalashdagi roli va kommunikativ samaradorligi baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida tahlil qilingan birliklar turli manbalardan olingan matnlar bilan taqqoslandi hamda umumlashtirish va tipologik tasniflash usullari asosida xulosalar shakllantirildi. Mazkur metodologik yondashuv perifrazalarning tilning obrazli kuchini oshirishdagi o'rni, ularning stilistik va funksional imkoniyatlarini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Perifrazalar tuzilishiga, ta'sirchanlikni ifodalashiga va ma'no xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. **Frazeologik perifrazalar.** Bunday perifrazalar ayrim predmet va voqea-hodisalarni frazeologik shakldagi tasviriy ifodalar orqali nomlash uchun xizmat qiladi. Bu perifrazalar tarkibidagi bir so'z to'g'ri, o'z ma'no-

sida, ikkinchisi esa ko'chma ma'noda bo'ladi. Masalan, mashhur kishilarga nisbatan "yulduzlarga ortiqcha erk bermoq" frazemasi qo'llanadi. Ana shu ibora frazeologik perifraza namunasi sanaladi: "Sportda har kimning rayiga qarab ish ko'rib bo'lmasligiga qattiq ishongan Sobirjon yulduzlarga ortiqcha erk bermadi" (Turk) kabilar.

2. **Sintaktik perifrazalar.** Ayrim so'z birikmalari tasviriy ifoda sifatida kelib, sintaktik perifrazalarni hosil qiladi. Bunday holda so'z birikmalaridan tuzilgan sintaktik perifrazalar tarkibidagi til birliklari o'zaro semantik-sintaktik munosabatga kirishib, ma'lum bir predmet yoki voqea-hodisani obrazli tasvirlash vositasi bo'ladi. Masalan: televizor – oynayi jahon; gazeta – hayot ko'zgusi; makkajo'xori – dala malikasi; paxta terish mashinasi – zangori kema; samolyot – havo kemasi va boshqalar.

Sintaktik perifrazalarni tuzilishiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

a) aniqlovchi-aniqlanmish shaklidagi sintaktik perifrazalar: qalam ahli, mo'yqalam sohibi, qizil iztoparlar kabi;

b) qaratqich-qaralmish shaklidagi sintaktik perifrazalar: zangori kema kapitani, ko'kning fonusi, hayot ko'zgusi kabi;

d) izofali birikmalar shaklidagi sintaktik perifrazalar: obi hayot, sohibi o'rmon, oynayi jahon, tolibi ilm kabi.

3. **Mantiqiy yoki logik perifrazalar.** Ma'lumki, mantiq ilmi narsa va hodisalar taraqqiyotidagi qonunlarning o'zaro bog'lanishi, tafakkur yordami bilan vujudga keladigan tushunchalar aloqasi va bog'lanishini ifoda etadi. Agar so'z narsalarning tartibi, bog'lanishi, izchilligi, asoslanishi, tafakkur taraqqiyoti va qonuniyatlari haqida boradigan bo'lsa, tafakkur mantiqi yoki subyektiv mantiq nazarda tutiladi.

## XULOSA

Perifrazalarni til yoki nutq hodisasi nuqtai nazaridan tahlil qilganda, ularni ikki asosiy turga ajratish mumkin:

1. Sof (lisoniy) perifrazalar va kontekstual (okkazional) perifrazalar. Sof perifrazalar mustaqil til birliklari sifatida aniq ma'no va tushunchani ifodalay oladi hamda badiiy bo'yoqqa ega bo'lishi bilan ajralib turadi.

2. Kontekstual perifrazalar esa faqat muayyan matn doirasida yashab, shu matnga xos tasviriy ifoda sifatida ishlatiladi; matndan tashqarida ularning ma'nosi va ta'siri pasayishi mumkin. Shu bois perifrazalar tilning obrazli kuchini oshiradi, so'z boyligini kengaytiradi va fikrni yanada tasviriy hamda jonli ifodalash imkonini beradi.

Kelgusida boy faktik dalillar asosida kontekstual yoki okkazional perifrazalarni tadqiq etish maxsus izlanishni talab qiladi, deb o'ylaymiz hamda biz o'z ishimizda okkazional perifrazalar haqidagi ana shu mulohazalar bilan cheklanamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**
1. Ali M. Shohrux Mirzo. – Toshkent, 2005. – 114, 361-362, 365-366-betlar.
2. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Qo'ng'urov R. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Shomaqsudov A., Rasulov R., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
5. Tojiyev Y. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. – Toshkent: Universitet, 2000.
6. Usmon Nosir. Unutmas meni bog'im. – Toshkent, 1935. – 297-bet.
7. Xayrullayev M., Haqberdiyev M. Mantiq. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 7-b.
8. Zulfiya. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 1997. – 299-bet.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №2(2)**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.